

KASBIY PEDAGOGIK ERUDITSIYA – TALABALAR TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING INTEGRATIV-PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.

*Andijon davlat pedagogika instituti,
Pedagogika mutaxassisligi bo‘yicha 1-kurs magistranti
Bekbulatova Mavluda Zaynabiddinovna*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19457552>

Annotatsiya. Mazkur maqolada kasbiy pedagogik eruditsiya tushunchasining nazariy mohiyati, uning tarkibiy komponentlari hamda talabalar kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishdagi integrativ-pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagogik eruditsiyani shakllantirishning samarali shart-sharoitlari asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: kasbiy pedagogik eruditsiya, kasbiy tayyorgarlik, integrativ yondashuv, pedagogik kompetensiya, refleksiya, innovatsion faoliyat.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamlashtirish jarayonida ta’lim tizimining oldiga yuqori malakali, kreativ fikrlaydigan va zamonaviy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlarni tayyorlash vazifasi qo‘yilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga moslashtirish hamda ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar pedagog kadrlar tayyorlash sifatini yangi bosqichga olib chiqishni talab etmoqda. Xususan, pedagog nafaqat chuqur nazariy bilimga, balki keng dunyoqarashga, tahliliy fikrlashga va kasbiy moslashuvchanlikka ham ega bo‘lishi zarurligi belgilangan. Shu nuqtai nazardan, kasbiy pedagogik eruditsiya talabalar tayyorgarligini rivojlantirishning muhim integrativ-pedagogik omili sifatida namoyon bo‘ladi. U bo‘lajak mutaxassisning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini yagona tizimga birlashtiradi.

Asosiy qism. Kasbiy pedagogik eruditsiya — bu bo‘lajak pedagogning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan keng qamrovli, tizimli va integrativ bilimlar majmui hamda ularni amaliyotda qo‘llash qobiliyatini ifodalovchi shaxsiy sifatdir. Mazkur tushuncha pedagogik kompetentlik, kasbiy madaniyat va intellektual salohiyat kategoriyalari bilan uzviy bog‘liqdir.

Kasbiy pedagogik eruditsiyaning asosiy komponentlari quyidagilar

- keng va tizimli kasbiy bilimlar;
- fanlararo integratsiyani amalga oshira olish qobiliyati;
- pedagogik tafakkurning rivojlanganligi;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash mahorati.

Olim I.A. Zimnyaya kasbiy eruditsiyani pedagogik kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismi sifatida talqin qiladi va uni turli fanlar bo‘yicha bilimlarni integratsiyalash orqali rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, eruditsiya faqat bilim yig‘indisi emas, balki amaliyotga moslashgan tizimli kasbiy bilimdir.

N.Usmonov pedagogik eruditsiyani bo‘lajak pedagogning faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan chuqur bilim va tafakkur sifatida ko‘radi. Shuningdek, u eruditsiyani shaxsning pedagogik qarorlar qabul qilish qobiliyati bilan bog‘laydi. Shuningdek, olim J. Yo‘ldoshev nazariyasida kasbiy pedagogik eruditsiya shaxsning individual rivojlanish darajasi, kasbiy qadriyatlar va intellektual salohiyat bilan bog‘liq. U pedagogning kasbiy o‘shida motivatsion va refleksiv komponentlarning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. R.Ishmuhamedov fikricha, pedagogik eruditsiya talabani mustaqil fikrlashga, yangi bilimlarni tizimlashtirishga va

amaliy vaziyatlarda qo‘llashga o‘rgatadi, bu esa kasbiy tayyorgarlikni samarali rivojlantiradi. O. Tolipov va M. Usmonboyeva kasbiy pedagogik eruditsiyani talabalar tayyorgarligini rivojlantirishning integrativ-pedagogik omili sifatida ko‘rib, uning innovatsion va interaktiv o‘quv metodlari bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi.

Yuqoridagi olimlar nazariyalariga asoslanib, kasbiy pedagogik eruditsiyaning tarkibiy komponentlarini mohiyatini ochib beramiz:

1.Kognitiv component. Pedagogika, psixologiya, metodika va mutaxassislik fanlari bo‘yicha chuqur va tizimli bilimlarni o‘z ichiga oladi.

2.Motivatsion-aksiologik component. Kasbga sadoqat, pedagogik qadriyatlarga hurmat va o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilishni ifodalaydi.

3.Faoliyat komponenti. Pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, ta’lim jarayonini loyihalash va samarali tashkil etish qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

4.Refleksiv component. O‘z faoliyatini baholash, xatolarni aniqlash va kasbiy o‘shishni rejalashtirish ko‘nikmalarini qamrab oladi.

O‘rganishlarimiz natijasida kasbiy pedagogik eruditsiya quyidagi yo‘nalishlarda talabalar tayyorgarligini rivojlantiradi:

- nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlaydi;
- fanlararo bog‘liqlikni kuchaytiradi;
- mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantiradi;
- innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlaydi.

Kasbiy pedagogik eruditsiyani shakllantirish shart-sharoitlarini fanlararo integratsiyani ta’minlash – turli fanlar mazmunini o‘zaro bog‘lash orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, talabalarning ilmiy loyihalarda ishtiroki, amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim, pedagogik amaliyot, кейс-метод, treninglar, refleksiv ta’lim muhiti, portfoliolar, o‘zini baholash va tahlil qilishga xizmat qiladi.

Xulosa. Kasbiy pedagogik eruditsiya talabalar tayyorgarligini rivojlantirishning muhim integrativ-pedagogik omili hisoblanadi. U bo‘lajak pedagogning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini tizimlashtiradi, kasbiy tafakkurini rivojlantiradi hamda innovatsion faoliyatga tayyorlaydi. Zamonaviy oliy ta’lim sharoitida eruditsiyali pedagogni shakllantirish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Ayniqsa, ilmiy-pedagogik asoslangan yondashuv, kompetensiyaviy model, innovatsion texnologiyalar hamda refleksiv faoliyatni tashkil etish orqali bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirish mumkin. Natijada, zamonaviy talabalar darajasida faoliyat yurita oladigan, kreativ va raqobatbardosh pedagog kadrlar tayyorlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Pedagogika / N. Usmonov. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. Pedagogik mahorat / J. Yo‘ldoshev. – Toshkent: Fan, 2018.
3. Umumiy pedagogika / O. Tolipov, M. Usmonboyeva. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
4. Pedagogik kompetentlik asoslari / N. Muslimov. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
5. Innovatsion ta’lim texnologiyalari / R. Ishmuhamedov. – Toshkent: Iste’dod, 2019.
6. Pedagogika nazariyasi va tarixi / I. P. Podlasiy. – Moskva: Vlados, 2016.
7. Kompetentnostnyy podxod v obrazovaniy / I. A. Zimnyaya. – Moskva: Akademiya, 2010.
8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishga oid me’yoriy hujjatlar. – Toshkent, 2022.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2019.
10. Xolmurodov Sh. Kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik asoslari // Zamonaviy ta’lim. – 2021. – №4. – B. 25–30.